



ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЖУРНАЛИ

ISSN: 3030-3281. Volume I, Issue-1, (January) 2024
Journal homepage: <https://imfaktor.com/index.php/tjrd>

UMAROV Sherzod Akbarovich
*O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi
huzuridagi B.Zokirov nomidagi
Milliy estrada san'ati instituti dotsenti*

DIRIJYORDA BIR ASARNI O'RGANISH ORQALI MAKSIMAL BILIM OLIISH

ANNOTATSIYA

Har qanday asar o'zining dirijyor tahliliga ega. Dirijyor tahlili qanday bo'lidhi kerak va buning uchun nimalarga e'tibor berish, shuningdek, qanday bilim va vazifalarni chuqur egallash lozim?

Ushbu maqolada bir asarni o'rganish orqali, maksimal bilim va tajribani egallash uslubi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: dirijyor, tahlil, bilim, tajriba, tafakkur, muloqot, madaniyat, rishta, sezgi, orkestr.

ПОЛУЧЕНИЕ МАКСИМАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ, ИЗУЧАЯ ПРОИЗВЕДЕНИЕ ПО ДИРИЖИРОВАНИЮ

АННОТАЦИЯ

Любое музыкальное произведение имеет свой дирижёрский анализ. Каким должно быть дирижёрский анализ и на что следует обратить внимание, а также какие знания и задачи необходимо освоить в глубину?

Эта статья расскажет, как получить максимум знаний и опыта через одно музыкальное произведение.

Ключевые слова: дирижирование, анализ, знания, опыт, мышление, общение, культура, творческая связь, чувства, оркестр.

GAIN MAXIMUM KNOWLEDGE BY STUDYING A CONDUCTING WORK

ANNOTATION

Any piece of music has its own conductor's analysis. What should be the conductor's analysis and what should be paid attention to, as well as what knowledge and tasks need to be mastered in depth?

This article will tell you how to get maximum knowledge and experience through one piece of music.

Key words: conducting, analysis, knowledge, experience, intellection, communication, culture, creative connection, feeling, orchestra.

Dirijyor fanidan asarlarni o'rganishda nimalarga e'tibor berish zarur va o'rganuvchi bitta asar orqali qanday bilim hamda tajribaga ega bo'la oladi? O'qituvilikning ko'p yillik tajribasi orqali shuni aytish mumkinki, bu kabi savollar har doimgidayek bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Ustozlarning dars o'tish an'analarini saqlagan holda, metodikaga yanada yangilik qo'shish va o'rganuvchiga yengil hamda oson yetib borishi uchun darslarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bu kunning asosiy talablaridan biridir.

Dirijyor - musiqiy ta'lim va ijrochilikning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning mazmuni va mohiyati keng ko'lamli bilim va tajriba jarayonlarni aks ettiradi. Shuningdek, dirijyorlik - san'at va kasb sifatida musiqiy mutaxassisliklar orasida eng murakkab va ko'plab musiqiy fanlarni o'ziga jamlashtirgan fanlardan biridir. XX asrda Rossiyada yashab o'tgan psixolog (ruhshunos) olim L.S.Vigotskiy shunday so'zlarni ko'p bora ta'kidlagan: "...bilim va san'atning tubi yo'q. Lekin, tinglovchi ijrochidan (yoki notiqdan) biron nimani tinglab, ko'ziga yosh kelsa, ruhi ko'tarilsa – bilingki u inson o'z sohasining baland cho'qqilarini egallabdi" [2, B.50]. Shunday ekan, bilim olishga bo'lgan ishtiyoq mayog'i tobora balandroq yonishi lozim.

Avvalo, dirijyor fani talabalarga nima beradi degan savolga javobni topsak. Dirijyor - sezgi san'ati [4, B.7].

U insonning ichki dunyosi va tafakkurining kengayishi uchun xizmat qiladi. Shu sababli, dirijyor - ko'p o'qigan, har qanday musiqiy bilimlarni yaxshi egallagan, bundan tashqari psixologik va jimoniy jihatdan mustahkam bo'lmog'i lozim. Dirijorning cholg'usi – orkestr yoki xor jamoasidir. Sozanda o'zining cholg'usi, xonanda esa ovozi bilan fizik yoki jismoniy kontakt qila olsa, dirijyor bunday ko'rinishdan mahrumdir. U orkestr yoki xor jamoasi bilan faqatgina ko'rinmas rishta orqali muloqot qiladi va boshqaradi. Orkestr (yoki xor) jamoasi "murakkab cholg'u" bo'lib, unda o'zining fe'l-atvori, qobiliyati va bilimiga ega bir nechta shaxs jamlangan. Shu sababli, har bir asarga dirijyorni amalga oshirish borasida, asarning mohiyati hamda mazmunini chuqur o'rganish, umuman olganda jamoa bilan ishlash mashg'ulotlariga dirijyor har tomonlama tayyor holda kelishi zarurdir.

XIX asrda yashab ijod etgan nemis dirijori, pianinochi, pedagog va kompozitor Xans Byulov, nemis kompozitori, pianinochi Ferens Listga shunday yozadi "...ikki xil dirijyor bor. Birinchisi - boshi partituraning ko'tarilmaydigan – yani asar va partituraning o'zlashtirmagan, ikkinchisi – partitura uning boshida (yani miyyasida - muallif). Ikkinchi turdagi dirijyor – orkestrni ijroga chorlaydi va tinglovchini musiqani eshitishga majbur etadi" [1, B.64].

Demak, bitta asarga dirijyor qilish uchun nimalarni o'rganish talab etiladi?

1. **Qanday oqimga taalluqli?** (barokko, klassitsizm, romantizm, avangard va h.k.);
2. **Asarning mazmuni.** Avvalo, kompozitor ushbu asar orqali qanday g'oyani ilgari suradi, qanday obrazlar mavjudligini o'rganish;
3. **Kompozitorning hayoti va ijodi.** Kompozitor qaysi davrda yashab ijod etgan, uning ijodida qanday asarlar asosiy o'rinni egallaydi? Zamondoshlari kim?
4. **Geografik.** Kompozitor qayerda yashab o'tgan, uning yashagan mamlakati qayerda joylashgan, ushbu mamlakatda yana qanday kompozitorlar yashab o'tgan?
5. Asosiy va ikkinchi darajali **mavzular yoki jummalarni** aniqlash;
6. **Xarakter.** Qanday janrda yozilgan (komyediya, psixologik, fojea, dramatik va h.k.);
7. **Shakl.** Oddiy yoki murakkab shaklda yozilgan bo'lishi mumkin. Unda har bir qismning asosiy, yordamchi, bog'lovchi kabi mavzularini o'zlashtirish;
8. **Dinamik.** Qanday dinamik ko'rmatmalardan foydalanilgan? (*pp=ff*);
9. **Garmonik.** Qanday akkordlar mavjud, lad, og'ishma yoki modulyatsiyalar;
10. **Shtrix.** Qanday shtrixlardan foydalanilgan? (stakkato, liga, ligato va h.k.);
11. **Musiqiy surat** (tezlik, temp). Ko'plab asarlarda kompozitor tomonidan aniq tempni toppish uchun metronom belgisi qo'yiladi. Agar qo'yilmagan bo'lsa, avvalo asar xarakterini o'rganish;

12. **Agogika.** Asarning rit., lyuft, fermato kabi – asarlarda eng ko‘p tarqalgan musiqiy atamalar ijrosini o‘zlashtirish;

13. **Muloqot madaniyati.** Unda orkestr (yoki xor) jamoasi bilan ijodiy muloqotni o‘zlashtirish. Dars jarayonida, jo‘rnavoza tushuntirish va ijroni talab qilish borasida o‘zlashtirib borish, ko‘p o‘qish orqali so‘z boyligini kyengaytirish;

14. **Psixologik turg‘unlik.** Har qanday jamoada turli fe‘l-atvordagi inson mavjud. Barcha ishtirokchilarning mashg‘ulot jarayonidagi holatini seza olish [5, B.59].

15. **Ijodiy muhitni yaratish.** Ishlash jarayonida bir joyda ko‘p to‘xtab qolmaslik, barcha ishtirokchilarni o‘z vaqtida ishlata olishlik va jamoaga ruhiy ko‘tarinkilik baxsh etish;

16. **Partitura** bilan mustaqil ravishda ishlay olish;

17. **Yangiliklardan boxabar bo‘lib borish.** Hozirgi kunda internet tarmoqlaridan, har qanday asarlarni audio hamda video variantlarini turli orkestr (yoki xor) jamoalari ijrosidagi ko‘plab variantlarini topish mumkin. Asarni eshitib olish, partituraning o‘zlashtirish uchun yengillik yaratadi.

18. **Sibelius nota tahrirlash dasturini** chuqur o‘zlashtirish. Zero, dirijor o‘z jamoasi uchun partitura tayyorlashida ushbu dastur beminnat yordamga keladi, shu sababli u, ishni yuritish va ijodiy jarayonni yengillashtirish borasida eng yaqin yordamchi hisoblanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar va ularni o‘zlashtirish uchun vaqt hamda tajriba kerak. O‘zlashtirish uchun vazifalar ko‘p korinsada, har bir asarga to‘g‘ri yondashuv qo‘yib olish orqali ko‘nikma hosil bo‘ladi. O‘qib-o‘rganish uchun erinmaslik, vaqtdan unumli foydalanish, har bir asar va uni ishlash jarayoniga tayyor bo‘lib borish juda muhimdir.

Bir asar orqasidan maksimal bilim olish borasida, eng kerakli va ko‘zga ko‘ringan vazifalarni sanab o‘tdik. Lekin, “har bir asarni o‘rganish borasida o‘zining sir-asrorlari borki, ular dars jarayonida o‘qituvchi yordamida o‘rganib boriladi” [3, B.47].

Uqib o‘rganish, keng tafakkurga ega bo‘lish, mustaqil fikrlab ishlay olish kabi vazifalar, bugungi kunda hukumatimizning yoshlar oldiga qo‘ygan muhim talablardandir. Zero, har bir shaxsning bu kabi fazilatlariga ega bo‘lishi nafaqat ustozlar, balki davlatimiz uchun ham kerakli kadrlarga ega bo‘lish borasidasidagi katta yutuqdir.

IQTIBOSLAR

1. Смирнов Б.Ф. Дирижёрское искусство как художественный и социокультурный феномен. Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора искусствоведения. Санкт-Петербург, 2004 г.
2. Миршаев У.М. Музыкально-эстетическое воспитание и современные требования к учителю музыки // Вестник науки и образования, 99:21-2 (2020). С. 48-51
3. Мустафаев Б.И. Некоторые вопросы развития профессиональных навыков учителя музыкальной культуры // Academy, 62:11 (2020). С. 47-50.
4. Umarov Sh.A. Dirijyor, darslik. T., "Tamaddun" nashriyoti, 2022 y.
5. Холиков К.Б. Музыкальная педагогика и психология // Вестник науки и образования, 99:21-2 (2020). С. 58-61.